

O'QUVCHILARGA QULAY PSIXOLOGIK MUHITNI TA'MINLASH VA MAKTAB AMALIYOTCHI PSIXOLOGNING VAZIFALARI

Murodova Visola Sobirovna

Samarqand viloyati, Paxtachi tuman MMTB ga qarashli

15-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

E-mail: visola280@gmail.com +99899 380 66 89

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20018784>

O'quvchilarga qulay psixologik muhitda ta'lim olishlarini ta'minlashning samarali yo'llari, maktab o'quvchilari o'rtasida ijtimoiy muhitni shakllantirishda psixologning o'rni hamda faoliyati. Ular bilan o'zaro munosabatlarning shakllanishi, ya'ni o'quvchi va ustoz o'rtasidagi munosabatlar, o'quvchining sinfdoshlari bilan munosabatidagi o'zgarishlar shu bilan birgalikda psixolog va o'quvchilarning munosabatiga qaratigan.

Ta'lim muhitining samaradorligi, qulayligi va xavfsizligi nafaqat o'quvchilarning psixologik holati, ruhiy va jismoniy rivojlanishiga ham ta'sir qiladi. Bunday muhitda o'quvchilarning o'zini erkin his etishi, ularning fikrlash erkinligi, hamkorlikka tayyorligi va o'rganishga bo'lgan istagi oshadi.

Maktab va oila hamkorligi o'quvchilar uchun qulay muhit yaratishda muhim o'rin tutadi. Ota-onalar bilan muntazam muloqat qilish ularni bolalarning rivojlanishi haqida xabardor qilish. Psixologik maslahat berish bolalar tarbiyasi bo'yicha ota-onalarga maslahat berish. Bolalarning ta'limga bo'lgan qizishini uyda ham qo'llab-quvvatlash zarur.

Qulay ta'lim muhitini yaratish — bu bolalar uchun o'zini erkin va xavfsiz his qilish imkonini beradigan, ularni qo'llab-quvvatlash va motivatsiya qilish orqali o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni oshirishga yordam beruvchi muhitni tashkil etishdir.

Qulay ta'lim muhitining yaratilishi o'quvchilarni rivojlantirish, ularni o'z salohiyatlarini to'liq amalga oshirishga undash va umumiy psixologik farovonlikni ta'minlashda juda muhim ahamiyatga ega.

Qulay ta'lim muhitining ahamiyati

1. **O'zini erkin his qilish:** Qulay muhit bolalarga o'z fikrlarini erkin ifoda etish, o'zlarining his-tuyg'ularini boshqarish va o'zlariga bo'lgan ishonchni oshirish imkonini beradi. Bu o'z-o'zini qadrlash va shaxsiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan asosiy omildir.

2. **Motivatsiya va ishtiyoqni oshirish:** O'rganish jarayonida ijobiy va qo'llab-quvvatlovchi muhit bolalarning o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi.

Agar bola o'zini qiziqarli va qulay muhitda his qilsa, o'rganishga bo'lgan qiziqishi ko'payadi va ular yangi bilimlarni osonroq o'zlashtiradilar.

3. **Stress va xavotirni kamaytirish:** Qulay ta'lim muhiti bolalarning stressini kamaytiradi. Qo'llab-quvvatlovchi va xavfsiz muhitda o'quvchilar o'zlarini stresssiz va xavotirsiz his qiladilar, bu esa o'rganish jarayonini samaraliroq qiladi.

4. **Ijtimoiy aloqalarni yaxshilash:** Ijobiy muhit, bolalarga bir-biri bilan o'zaro hurmatda bo'lishni, jamoadagi ishlashni va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o'rgatadi. Bu ularning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Qulay ta'lim muhitini yaratishning usullari

1. **Hurmat va ishonchni o'rnatish**

Ijoiy va hurmatli muloqot: O'quvchilar bilan muloqotda har doim hurmatni saqlash va tinglash. Har bir bola o'z fikrini bildirishda erkin his qilishi kerak. Agar bolaga hurmat ko'rsatilsa, u o'z fikrini ochiq va ishonch bilan bildira oladi.

O'zaro ishonchni mustahkamlash: Bola va o'qituvchi o'rtasida ishonchli va do'stona munosabatlar o'rnatish. Bu bola o'zini xavfsiz va qo'llab-quvvatlangan his qilishiga yordam beradi.

2. Xavfsiz va qulay muhit yaratish

Jismoniy xavfsizlik: Sinf yoki o'quv joyining bolalar uchun xavfsiz bo'lishini taminlash. Jismoniy xavfsiz muhit bolalarga o'zlarini erkin va xotirjam his qilish imkonini beradi.

Emotsional xavfsizlik: Bolalarga o'z fikrlarini, xatolarini yoki kamchiliklarini erkin ravishda ifoda etishlariga imkon berish. Xatolarni tan olish va ularni o'rganishning tabiiy bir qismi sifatida qabul qilish.

3. Motivatsiya va qiziqishni oshirish

Pozitiv rag'batlantirish: O'quvchilarning kichik yutuqlarini ham rag'batlantirish. Bu ularni yanada ko'proq mehnat qilishga undaydi va o'rganish jarayonida ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otadi.

Qiziqarli va ijodiy faoliyatlar: O'quvchilarning qiziqishlariga mos keladigan faoliyatlar va dars usullarini tanlash. Misol uchun, o'yinlar, ijodiy mashg'ulotlar, guruh muhokamalari orqali o'rganishni yanada qiziqarli qilish.

4. Jamoaviy ish va hamkorlikni rag'batlantirish

Jamoaviy faoliyatlar: O'quvchilarni jamoaviy ishga jalb qilish, birgalikda ishlashni o'rgatish. Bu o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi va o'zaro yordam va hamkorlikni ta'minlaydi.

O'zaro hurmat va hamkorlik: O'quvchilarga boshqalarni tinglashni, yordam berishni va birgalikda ishlashni o'rgatish. Bu ular o'rtasida o'zaro hurmat va mustahkam aloqalar o'rnatadi.

5. Xatolarni qabul qilish va ulardan o'rganish

Xatolarni mukofotlash: Xatolarni nafaqat jazolash, balki ulardan o'rganishni o'rgatish. Xato qilish o'rganish jarayonining ajralmas qismi sifatida qabul qilinishi kerak.

Sabr va qat'iyatni rivojlantirish: O'quvchilarga o'z maqsadlariga erishish uchun sabr va qat'iyat ko'rsatishni o'rgatish. Bu ular uchun ijobiy bir yondashuvni rivojlantiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Prezidentimiz o'zining O'zbekistonning bugungi istiqbol va istiqbol yo'lini ifodalovchi qator ma'ruzalar, asarlarida ham iqtisodiyot bilan ma'naviyat, inson ruhiyatining barkamolligi, hayotning o'zaro ajralmas, bir-birini to'ldiradigan, o'zaro ta'sir, aks ta'sir etadigan muhim omillar ekanligini ayni paytda bugungi iqtisodiy o'nnglanish, ma'naviy poklanish, ma'naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg'un bo'lishini ta'minlashning muqarrar ijtimoiy zarurat ekanligini qayta-qayta ta'kidlaydi. Bu vaziyatlarning bajarilishi esa har bir shaxs va uning faoliyatini bugungi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti tamoyillari qo'ygan talablari asosida qaror toptirishga ko'maklashuvchi **psixologik xizmat** jarayonining muvaffaqiyatli tadbiriq etilishiga ham bog'liq ekanligi shubhasizdir.

Bolaning ta'lim olishida oilaning ahamiyati ulkan. Oilada nafaqat bolaning o'qishga bo'lgan munosabatini shakllantiradi, balki uning psixologik holati, ijtimoiy rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ota-onalarning xabardorligini oshirish orqali, ta'lim muassasalari ularni bolaning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishga undashlari kerak. Shuningdek, oila ta'lim muassasasining hamkorligi orqali bolalarning eng yaxshi ta'lim olishlari mumkin bo'ladi.

Ta'lim muhitining samaradorligi, qulayligi va xavfsizligi nafaqat o'quvchilarning muvaffaqiyatiga, balki ularning psixologik holati, ruhiy va jismoniy rivojlanishiga ham ta'sir qiladi. Bunday muhitda o'quvchilarning o'zini erkin his etishi, ularning fikrlash erkinligi, hamkorlikka tayyorligi va o'rganishga bo'lgan istagi oshadi.

Psixologik muhit qulay bo'lgan oilada kamol topgan har bir farzand oilaning jamiyatning har bir a'zosiga muhabbat, hurmat va ishonchli munosabatda bo'ladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Z.T. Nishonova, Sh.T. Alimboyeva, M.V. Sulaymanov "Psixologik xizmat" Toshkent-2014
2. Z.T. Nishonova, G.K. Alimova "Psixologik xizmat. Psixokorreksiya" darslik Toshkent-2019
3. E.G`oziyev "Psixologiya" Toshkent -2008
4. A.Toshpo'latov, K. Sodiqov " Maktab o`quvchilari o`rtasida ijtimoiy muhitni shakllanirishida psixologlarning faoliyati va ijtimoiy psixologik omillar" 2023